



Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 10 355 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi






Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

	2026-yil 1-aprel holatiga, birlik	2026-yil 1- aprel holatiga, birlik
Sirdaryo viloyati	9 148	10 355
Guliston shahri	2 221	2 537
Shirin shahri	194	228
Yangiyer shahri	720	826
Oqoltin tumani	611	669
Boyovut tumani	753	858
Sayxunobod tumani	634	628
Guliston tumani	649	753
Sardoba tumani	880	992
Mirzaobod tumani	801	966
Sirdaryo tumani	1 163	1 310
Xovos tumani	522	588


Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2026-yilning yanvar-mart oylarida 644 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni



2026-yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 271 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 121 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 76 ta hamda sanoatda 62 ta tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


	2025-yil yanvar-mart oylarida, birlik	2026-yil yanvar- mart oylarida, birlik
Sirdaryo viloyati	459	644
Guliston shahri	115	178
Shirin shahri	3	3
Yangiyer shahri	35	45
Oqoltin tumani	31	30
Boyovut tumani	32	41
Sayxunobod tumani	36	34
Guliston tumani	21	42
Sardoba tumani	38	68
Mirzaobod tumani	55	77
Sirdaryo tumani	73	95
Xovos tumani	20	31



III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar-mart oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 64,0 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 2,6 % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 638,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 50,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 130,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Oqoltin (100,0 %), Boyovut (97,1 %), Xovos (83,9 %), Mirzaobod (73,5 %) tumanlari va Yangiyer shahar (66,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 948,7 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 78,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahar (100,0 %), Guliston shahar (99,9 %) va Sayxunobod (94,9 %) tumaniga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3 800,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 83,7 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 97,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Oqoltin (94,3 %), Yangiyer shahar (93,9 %), Sayxunobod (80,8 %) va Sirdaryo (92,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati 2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 1 983,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 97,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 105,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Xovos (98,7 %), Sayxunobod (98,6 %), Oqoltin (98,6 %) va Boyovut (98,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 1 249,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining ulishi 73,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 98,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Shirin shahri (81,6 %) Oqoltin (80,6 %), Sirdaryo (80,4 %), Boyovut (79,5 %) va Sayxunobod (78,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 2 677,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 68,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 114,2 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 42,5 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 56,8 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 154,6 mln AQSH dollarini yoki jami importning 73,1 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Sayxunobod – 100,0 %, Guliston shahar – 99,9 %, Boyovut – 99,1 %, Xovos – 97,5 %, Oqoltin – 92,2 % va Sirdaryo tumanlarida – 73,9 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,5 % ni tashkil etdi. 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 85,4 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,3 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,9 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,0 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 2026-yilning yanvar-mart oylarida 14,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, umumiy iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan 58,0 % ni, umumiy iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan 21,8 % ni, umumiy iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholaganlar 5,5 % ni tashkil qildi.




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanish (ko'payish) deb baholagan korxonalar ulushi

2022-yilning yanvar-martda 52,2 % ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-martda 55,0 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning yanvar-martda 43,6 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-martda 44,0 % yoki 0,4 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashish (kamayish) deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2022-yilning yanvar-martda 4,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-mart ga kelib, bu ko'rsatkich 1,0 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning yanvar-mart oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2026-yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 19,5 % ni, xizmatlarda – 14,8 % ni, savdoda – 14,3 % ni, sanoatda – 9,6 % ni va qurilish sohasida – 7,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarining ulushi xizmatlar sohasida – 68,8 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 58,4 % ni, qurilishda – 54,0 % ni, sanoatda – 46,1 % ni va savdoda – 60,0 % ni tashkil etdi.


Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalarining ulushi xizmatlar sohasida – 11,5 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 16,2 % ni, qurilishda – 31,7 % ni, sanoatda – 38,5 % ni va savdoda – 21,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarining ulushi xizmatlar sohasida – 4,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 5,9 % ni, qurilishda – 6,4 % ni, sanoatda – 5,8 % ni va savdoda – 4,3 % ni tashkil etdi.





Umumiy iqtisodiy vaziyatini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida (Keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqboli) baholanishi



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:

Sh. Shadmankulov
67 236-70-00 (2030)

Manzil:

Sirdaryo viloyati, Guliston shahar,
Birlashgan ko'chasi, 62-uy